

“TAROZIY TOSHBAQASI” (T.PO‘LATOV) ROMANIDA MIFOLOGIK ARXETIP VA METAMORFOZA MASALASI

Axmadiy Komila Shavkat qizi,

Guliston davlat universiteti

O‘zbek adabiyoti kafedrası 2-bosqich tayanch doktoranti

anorboyevakomilxon@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Temur Po‘latovning “Taroziy toshbaqasi” romanidagi metamorfoza hodisasi va uning paydo bo‘lishidagi mifologema, arxetipik obrazlar va mifologik motiv masalasi tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: metamorfoza, mif, mifologik obraz, motiv, mifologema, arxetip.

Аннотация. В данной статье анализируется явление метаморфозы в романе “Черепаша Тарози” народного писателя Узбекистана Темура Пулатова, а также рассматриваются вопросы мифологеми, архетипических образов и мифологических мотивов, связанных с её возникновением.

Ключевые слова: метаморфоза, миф, мифологический образ, мотив, мифологема, архетип.

Abstract. This article analyzes the phenomenon of metamorphosis in the novel “Tarozi’s tortoise” by the People’s Writer of Uzbekistan Temur Pulatov, as well as the issues of mythologeme, archetypal images, and mythological motifs involved in its emergence.

Keywords: metamorphosis, myth, mythological image, motif, mythologeme, archetype.

Kirish. “Arxetip” tushunchasini zamonaviy ilmga analitik psixologiya asoschisi K.G.Yung kiritdi. Arxetip yunonchadan olinganda (arche – ibtido), (typos – obraz) deganidir. “Arxetip” termini ostida zamonaviy filologiyadan o‘rin egallagan keng tushunchadan kelib chiqib badiiy ijodning “ko‘chib yuruvchi, yaratuvchi” ma‘lum modellari, barqaror takrorlanuvchi adabiy shakllar ko‘zda tutiladi: “...arxetiplar har qanday badiiy strukturalar asosida yaratuvchi eng umumiy, fundamental va umuminsoniy mifologik motivlar, ilk sxemalar va tasavvurlardir”.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy arxetiplar – bu nafaqat mif va urf-odat bilan bog‘liq “ilk obrazlar”, balki adabiyotning “abadiy obrazlar”idir. Yu.V.Domanskiy bu borada shunday fikrlarni keltiradi: “Arxetip deganda biz (albatta, K.G.Yung va K.M.Meletinskiylar arxetipga bergan ta‘rifga tayangan holda) bashariyat taraqqiyotining eng dastlabki davralarida inson ongu-shuurida, ongostida hosil bo‘lgan (shunga ko‘ra milliy mansubligidan qat‘iy nazar barcha uchun umumiy bo‘lgan) miflarda ifodalangan va hozirgi kungacha kishilar ongostida saqlanib kelayotgan birlamchi syujet sxemalari, obrazlar yoki motivlarni (jumladan, predmetga ham oid) tushunamiz”.

Eng muhim mifologik arxetiplar yoki arxetipik mifologemalar sifatida K.G.Yung avvalo, “ona”, “bola”, “sharpa (soya)”, “animus”, “donishmand chol” (“donishmand kampir”) arxetiplarini alohida ajratib ko‘rsatadi. “Ona” abadiy va boqiy ongsiz stixiyani idodalaydi. “Bola” ommaviy ongsizlik muhitidan shaxsiy ong-shuurning uyg‘onishi ramzi. “Sharpa” shaxsning ong-shuur chegarasidan tashqarida qolgan ongsiz bo‘lagi. Erkaklar uchun “anima” va ayollar uchun “animus” o‘zga jins obrazida ifodalangan shaxsning

ongsiz ibtidosi, “donishmand chol” – oliy ma’naviy sintez, keksalikda ruhning ongli va ongsiz sohalarini uyg’unlashtiradi. Shu jihatdan, ulug’ yozuvchimiz T.Po‘latovning “Taroziy toshbaqasi” romanini tahlilga tortamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda badiiy matnni tahlil qilishning mifopoetik, qiyosiy-adabiy hamda germenevtik metodlaridan foydalanildi. Roman tarkibidagi mifologik arxetiplar, mifologemalar va metamorfoza motivlari K.G.Yung arxetip nazariyasi hamda zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, asardagi ramziy obrazlar va badiiy motivlar ilmiy manbalar bilan qiyosiy o‘rganilib, ularning poetik funksiyasi aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Xurshid Do‘stmuhammad ta’biri bilan aytganda: “Temur Po‘latov asarlari mutolaasiga kirishgan kitobxon katta va olis yo‘lni bosib o‘tadi. Uning falsafasini, dunyoqarashini, fikrlash sistemasini va bular bari jamlanib hosil qilgan o‘ziga xos badiiy-ma’naviy olamni anglash adib asarlarini takror-takror o‘qishni taqozo etadi”. Adib yozuvchining asarlarini, jumladan, “Taroziy toshbaqasi” romanini aql ko‘zi bilan, ziyoli nazar bilan o‘qilmog‘i zarur deb hisoblaydi. X.Do‘stmuhammad Taroziy obraziga alohida to‘xtaladi: “Taroziy Sharqning buyuk allomalarini eslatadi. U behad shakkokligi uchun odam zotining xayoliga kelmagan ajoyibotlarga qo‘l uradi, izlanadi, dilidagi tilida bo‘lganligi uchun doim yolg‘iz, darbadar. Odamlarning nazarida u telbanamo, ammo noyob fikrlar zikr etilgan asarlar yaratadigan ham, karvonsaroyga o‘lik echkiemar ko‘tarib kelgan ha, xaloyiq kaltaklab toshbo‘ron qilgan toshbaqaga homiylik qilgan ham Taroziy!”.

Farrux obraziga keladigan bo‘lsak, u – johillik timsoli, ya’ni u bilish va anglash ramzi bo‘lmish Taroziydan ko‘ra orqadagi – tuynuklarga yashiringan olomonga yaqin. Adib ushbu ikki ramziylik o‘ratasidagi kontrast orqali romanning markaziy o‘qlaridan birini tashkil etgan.

Romanning markaziy ramzi bo‘lgan toshbaqa Sharq falsafasida va madaniy tafakkurida alohida o‘rin tutadi. Toshbaqa olamni yelkasida ko‘targan jonivor sifatida qaraladi va bu timsol qadimiy bilim, vaqt va sabrning ramzi hisoblanadi. Donishmand o‘zini toshbaqa bilan qiyoslab, “U harakat qilmasa ham, u yurishda edi. Harakatdan ko‘ra muhimroq narsa – ichki o‘zgarish edi”, degan fikrni ifodalaydi. Bu esa, tashqi harakatning emas, balki ichki o‘zgarishlarning va ruhiy rivojlanishning ustunligini ko‘rsatadi. “Toshbaqaning har bir harakati – ibodat kabi edi. Sekin, ammo mazmunli”, degan so‘zlar esa uning hayotdagi harakatlari sabr-toqat, maqsadga yo‘naltirilgan chuqur fikrlash va ruhiy tozalik bilan amalga oshishini ta’kidlaydi.

Yozuvchi xarakter birinchi navbatda muayyan g‘oyani, ramziy-falsafiy qarashlarni ifodalash vositasi, deb hisoblaydi. Shu tufayli kitobxon tasavvurida adib qahramonlarining obrazi emas, har bir xarakterda mujassam topgan g‘oyaning obrazi, fikr konsepsiyasi gavdalanadi. “Takror aytish lozim, Temur Po‘latovning g‘oya-obrazlari biz ko‘rib, eshitib ko‘nikkan hayot realliklarida emas, balki rivoyatlar, afsonalar bilan qorishib ketgan muallifning ramziy-simvolik realligida yashaydi. Afsona va rivoyatlar asar voqealar

dramatizmini yanada oshirishga, kitobxon tasavvuri ko‘lamini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Adibimizning ana shunday boy tasvir uslublarini hazm qila olgan taqdirdagina u topgan “nohayotiy” realliklarga (masalan, odamning toshbaqaga aylanishiga) ishonamiz”, – deydi Xurshid Do‘stmuhammad.

Adib ta‘biri bilan aytilgan ushbu “nohayotiy” reallik ilm-fan tilida **metamorfoza** deb yuritiladi. Metamorfoza hodisasi o‘simliklarda, hayvonlarda, umuman, tabiatda uchraydigan tabiiy jarayon bo‘lib, bu bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishni ifodalaydi. Inchunin, metamorfoza jarayoni tufayli qurt kapalakka aylanadi, suvdan tashqarida yashayolmaydigan qurbaqa uvuldiridlari kattarib, quruqlikka chiqadi va boshqa hayotga moslashadi va hokazo. Endi metamorfoza jarayonining adabiyotda, xususan, adabiy asarlarda, ulardagi obraz va epizodlarda bo‘y ko‘rsatishining ham o‘ziga xos katta tarixi bor. Odamzod dunyoqarashi shakllanishining ilk bosqichida voqelikni mifologik talqin qilish va bu jarayonda metamorfozalardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilishlar silsilasi mifologiya sifatida falsafaning, mifologik obrazlar sifatida esa adabiyotning e‘tiborini tortdi. Antik yunon va rim adabiyotining ilk ijodkorlari Ovidiy “Metamorfozalar” asarini yaratgan. U bu asarida yunon va rim xalq og‘zaki ijodida uchraydigan metamorfoza hodisasi mavjud bo‘lgna jami 250 ta afsonani yig‘ib kitob qilgan. Ovidiyning “Metamorfozalar” asariga jamlangan mazkur afsonalar dunyo xalqlarining badiiy tafakkuriga va yozma adabiyotiga ulkan ta‘sir o‘tkazdi.

O‘zbek adabiyotshunosligida “metamorfoza motivi”ning o‘zbek hikoyachiligidagi ko‘rinishlarini adabiyotshunos M.Qo‘chqorova o‘zining “Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik” dissertatsiyasida maxsus o‘rgangan. Olima shunday yozadi: “Demak, o‘zbek adabiyotida “Metamorfoza motivi”ga yozuvchilar bejiz murojaat qilmas ekan, mazkur qadimiy va mifologik, magik asosga ega badiiy shartli vosita sanalgan metamorfoza, asosan, davr va qahramon inqirozini, inqirozdan oldingi, inqirozdan keyingi holatlarni qiyosan tahlil etish uchun keng asos va imkoniyatlar beradi”.

Keyinchalik adabiyotning realizmga yuz tutishi va gumanizmga katta e‘tibor qaratilishi natijasida mifologik obrazlarga bo‘lgan tarixiy qiziqish birmuncha so‘ngandek taassurot qoldirdi. Shunga qaramay, vaqti-vaqti bilan bunday asarlar u yoki bu milliy adabiyotlarga turli davr va makonda yashagan yozuvchilar ijodida bo‘y ko‘rsatib turdi. Bu o‘rinda Frans Kafkaning “Evrilish”, M.Bulgakovning “Ityurak”, shuningdek, Lotin Amerikasidagi ko‘plab metamorfozik romanlar va boshqa shunga o‘xshash milliy adabiyotlarda yuz ko‘rsatgan ko‘plab jihatlar metamorfozaning adabiy istiqboli nechog‘liq qiymatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida metamorfoza in‘ikos etgan ilk roman Temur Po‘latovning “Taroziy toshbaqasi” (1985) romanida ko‘rinish berdi. Romanda toshbaqaning insonga evrilishi o‘rta asr mistitsizmi bilan uyg‘unlashtirilgan holda tasvirlanadi. **Metamorfozalar** adabiyotda, odatda, tushunarsiz, sirli va mistik narsalarni

tasvirlash uchun ishlatiladi. Qadimgi asotirlar, miflar, ertaklar va xalq dostonlari metamorfozalar bilan to'la. U yerda odamlar vafot etadi, qayta tug'iladi, ular dahshatli maxluqlar va hayvonlarga evriladi, so'ng yana odamlarga aylanadi. **"Metamorfoza"** so'zi istiloh sifatida yunoncha – "o'zgarish" ma'nosini ifodalaydigan ilmiy tushuncha bo'lib, u individual rivojlanish jarayoni (ontogenez)da tana tuzilishining chuqur o'zgarishga yuz tutishini anglatadi. Shuningdek, metamorfoza o'zbek folklorshunosligida "evrilish motivi" deb ham ishlatiladi.

"Taroziy toshbaqasi" syujeti qanday tug'ilgan? Buni freydizm nuqtai nazaridan qanday tushunish mumkin?.. Bu haqida Temur Po'latovning shogirdi Sherzod Xalil yozuvchidan bu romanning dunyoga kelish tarixi, ijodiy biografiyasini, Toshbaqa va Taroziy obrazlarining adib tarjimai holi bilan ne qadar aloqasini borligini so'raganida, adib shunday javob bergan: "Toshbaqa va Taroziy obrazlarini shaxsiy biografiyam bilan qanday aloqasi borligi haqida hech o'ylamagan ekanman. Darvoqe, bolaligimda uyimizga yaqin joyda eski qabriston bo'lardi, bozorga uning yonidan o'tgan yo'lakdan qatnardik. 200-300 yillik qabriston ekanini menga oyim aytgandi. Bir kuni shu yo'ldan o'zim o'tayotib, toshbaqaga duch kelganman. Toshbaqani ko'tarib uyga olib keldim. O'shanda olti yoshdan endi o'tgan paytlarim. Toshbaqani boqib olishga uydagilarni ko'ndirdim. Yuqori boloxonali uyda uni joylashtirdim. Shu toshbaqani o'ynab yurardim. Unga o't berardim, bo'sh vaqtlarimni shunga sarflardim, xullas. Bir kuni boloxonaga chiqsam, toshbaqa yo'q. Izlayman, qidiraman, hech joydan topolmayman. "Toshbaqam qani?" deb pastga yig'lab tushdim. Pastdagi uydan bir vaqt otam chaqirib qoldi: "Mana, toshbaqang bu yoqda ekan", deb. Xursand bo'lib uyga yugurdim. Uyda otam va sartarosh kirishim bilan meni tutib karavotga yotqizishdi va hech kutilmaganda sunnat qilishdi. Yig'idan ovutish uchun keyin menga toshbaqani berishdi. Keyin bilsam, otam toshbaqani yashirib qo'ygan ekan pastda. Otam men bilan shafqatsiz hazillar o'ynab, meni aldab qo'ydi, ular meni zo'ravonlik bilan yotoqqa yotqizishdi, qo'llarim va oyoqlarimni mahkam ushlab, qattiq og'riq va sharmandali yalang'och yotganimda, So'fiyon mahallasi bolalari menga qarashdi va odat bo'yicha tangalarni mening avratim ustiga tashladilar, bularning barchasi oxir- oqibat ong ostiga qo'yildi, u yerdan kichkina toshbaqa mifologik toshbaqaga aylanib, qo'rqinchli ko'rinish bilan ong ostidan ijod voqeligiga aylandi. Toshbaqaning ustidagi kosasi taroziga o'xshaydi. Taroziy obrazining yuzaga kelishi, balki, shu omil bilan bog'liqdir. Balki o'sha Taroziy mening o'zimdir. Sunnatni bola tushunmaydi-ku, u uchun jismoniy jarohat ruhiy jarohatga aylanadi. Demak, bu narsa menga ta'sir qilgan ekan. Sunnatdan katarsis bo'lgan bu voqelik ko'p vaqt ong ostida dard bo'lib yotgan, keyin fantaziyaga aylanib, toshbaqa obrazi yuzaga chiqdi". Demak, yozuvchining bolaligida toshbaqa bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan voqea uning ong ostida uzoq yillar yashab, kun kelib, badiiy obrazga, mifologik motivga aylangan. Ya'ni bolaligida u mehr qo'yib, asrab-boqqan toshbaqa kun kelib "Taroziy toshbaqasi" romaniga noreal mifologik obraz sifatida kirgan.

Yozuvchi ijodida metamorfoza jarayoni faqatgina shu roman bilangina cheklanmagan. Bu o‘rinda yozuvchi ijodidagi yana bir qiziq asar — 1987 yilda Toshkentda Temur Po‘latovning rus tilida chop etilgan ikki jildlik tanlangan asarlari qatorida chop etilgan “Dengiz ko‘chmanchilari” qissasiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq sanaladi. Yozuvchining “mifologik metamorfoza”ga murojaati “Taroziy toshbaqasi” romanida toshbaqaning odamga evrilishida aks etgan bo‘lsa, “Dengiz ko‘chmanchilari” qissasida Ko‘kko‘zning delfinga evrilishida namoyon bo‘ladi.

“Taroziy toshbaqasi” haqida olmon matbuotida maqola yozgan adabiyotshunos Samuel Baxli Temur Po‘latov romanini Kafkaning “Evrilish”i bilan solishtirgan. U o‘z maqolasida shunday yozadi: “Temur Po‘latov Kafka dunyosiga kirganmi – yo‘qmi, bir narsa deyish qiyin. Albatta, o‘zbek yozuvchisi izidan Kafkaning qadamlarini payqash mumkin, biroq biz buni qanchalik xohlashimizdan qat‘i nazar, bu to‘g‘ridan to‘g‘ri ketma-ketlik emasligi ayon. Po‘latov fikrlashning mutlaqo boshqa tizimini bizga taqdim etadi. Shu ma‘noda u Kafkadan tubdan farq qiladi. Kafkada inson hasharotga aylanib qoladi, Po‘latovda toshbaqa insonga aylanadi”. Yozuvchining “Dengiz ko‘chmanchilari” qissasi shu ma‘noda “Taroziy toshbaqasi” romanidan ko‘ra Kafka an‘analariga yaqinroq, bu o‘rinda Ko‘kko‘zning delfinga evrilishi, Kafkaning hasharotga evrilgan qahramoni bilan umumiy mushtaraklik kasb etadi.

Shunindek, tadqiqotchi A.Eshniyozova bu roman haqida monografik tadqiqotida shunday yozadi: “Taroziy toshbaqasi” romanida afsona, rivoyat va ramziy tasvir asosiga zamonaviy muammolar singdirilgan. Yozuvchi romanni toshbaqaga aylangan savdo xodimi haqidagi afsona asosida yaratdi. Taroziy Sharqning buyuk allomalarini eslatadi. “Qayerga bormasin begona, odamlarga elikmaydi. Ko‘rinishidan xotirjam, xuddi hech kimni bir chaqaga ham olmaydiganday... ammo unday emas! Isyonkor... yuragi ham doim qanaqadir g‘ash! Nimani axtaryapti bu dunyodan?” U ham har doim yakka-yolg‘iz, darbadar, chunki u hech kimning xayoliga kelmagan, hech kim o‘ylamagan ishlarga qo‘l uradi, Yaratgan qudratining sinoatini fosh etgisi keladi. Shu yo‘lda umrini sovuradi, toshbaqashunoslikda kashfiyot qilmoqchi, toshbaqa-odamni asliga qaytarmoqchi, haqiqiy insonga aylantirmoqchi bo‘ladi. Taroziy haqida haqiqat Benishon tomonidan aytiladi: “Buyam hov zanjirband murdaning o‘zi... Ezgu ish yo‘lida buyam qasd qilgan... lekin buyam jazolangan...”

Taroziy izlanishlariga evrilishga uchragan qahramonning hayoti yakuniy xulosa bo‘ldi. Tanosuxning tadqiqotlar natijasida odamga aylanishi va yana asliga qaytishi Yaratganning qudratidan darak beradi. Benishonning to‘la shakllanmagan ma‘naviy, ruhiy olami, inqirozi, qiyofasiz inson fojiasini Prometey haqidagi qoliplovchi afsona asosida yoritadi”.

Yozuvchi qahramonlariga nom tanlashining o‘zida bir dunyo hikmat bor. Uning asarlaridagi Oqmon, Dushan, Bekov, Egamov, G‘oyib va hokazo obrazlarning ismi-sharifi haqidayoq uzoq suhbat qurish mumkin. Ulug‘ niyatli Taroziy deb nom qo‘yilganining bejiz

emasligi shundaki, Taroziy dunyodagi eng ezgu haqiqatlarni tarozi pallasiga qo‘yib adolat o‘rnatmoqchi, tarozi pallasida esa benishonlarga temir qobiq bo‘lib qolyapti, deb fikr bildiradi X.Do‘stmuhammad. “Shu o‘rinda men roman tarjimoni bilan bahslashgan joyim ham bor. Fikrimcha, asarning ruscha – asl nusxasidagi Bezsaz o‘zbekcha tallafuzga moslashtirilib Besoz deb olingani ma’qul edi. Negaki, muallif bu obraz orqali sozlanmagan, ya’ni yaxshilikka, ezgulikka mayli-intilishi shakllanmagan odamlarni nazarda tutyapti. Tarjimon esa o‘z tushunchasidan kelib chiqib Bessazni Benishon deb olgan...Taroziyning niyatlari nechog‘li ulug‘ bo‘lmasin, orzulari ro‘yobga chiqish arafasiga bormasin, uning shogirdi – Armon, ya’ni orzu va armon mangu hamrohligiga ishora”.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Temur Po‘latovning “Taroziy toshbaqasi” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida arxetipik timsollarning chuqur va samarali poetik talqiniga ajoyib misol bo‘la oladi. Asarda ramzlar, tushlar va voqealar arxetiplar tizimiga qat’iy bo‘ysunadi, bu esa o‘quvchini chuqur ma’naviy va madaniy bilimga yetaklaydi. Shu bois, Po‘latov ijodini K.G.Yung, J.Kempbella, Eliade kabi yetakchi nazariyalar asosida o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi uchun yangi nazariy yo‘nalishlarni ochish imkonini beradi. Asar ruhiy o‘rish, o‘zlikni anglash, arxetipik to‘qnashuvlar va uyg‘onishlar bilan boyitilgan bo‘lib, u hozirgi o‘zbek romanchiligida paydo bo‘lgan “Metamorfoza motivi”ni global madaniy kontekstda qayta talqin qilishga imkon yaratadi. Bu esa nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyotshunosligi uchun ham muhim ilmiy natijadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Damirchiyev S. O‘zbek adabiyotida mif va ramzlar. – Toshkent: Akademya nashri, 2018.
2. Karimov N. Sharq falsafasi va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Mirzayev A. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ramz va timsollar. – Toshkent: Akademya nashri, 2020.
4. Po‘latov T. Taroziy toshbaqasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2022.
5. Sa’dullayev B. Sharq falsafasi va mifopoetika. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Sherzod Komil Xalil. Taroziy toshbaqasi va metamorfozalar / Hurriyat – 36, 2025.
7. X.Do‘stmuhammad. Ma’rifat darvozalari, 1989.
8. Кўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. – Тошкент: Фан, 2020.
9. Эшниязова О. Хуршид Дўстмухаммад: анъана ва услуб. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2022.